# TOSHKENT VILOYATI QIBRAY TUMANI HOKIMI
# Q A R O R I

2024 - yil 12 - fevral 55-10-139-Q/24 Qibray tuman hokimligi

**Qibray tuman sportni rivojlantirish bo‘limi tasarrufidagi bugungi kunda qayta qurilib foydalanishga topshirilgan binoni Qibray tuman sport maktabi balansiga o‘tkazish to‘g‘risida**

Toshkent viloyati Yoshlar siyosati va sport bosh boshqarmasining 2024-yil 27-yanvardagi 01-03/02-02/4/1/202-sonli xati, Qibray tuman hokimining 2020-yil 20-oktabrdagi 1373-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan,

**QAROR QILAMAN:**

1. Toshkent viloyati Yoshlar siyosati va sport bosh boshqarmasining 2024-yil 27-yanvardagi 01-03/02-02/4/1/202-sonli xati inobatga olinsin va ijroga qaratilsin.

2. Qibray tumani, Shodlik mahallasi A.Navoiy ko‘chasi 230-uyda joylashgan Qibray tumani sportni rivojlantirish bo‘limi tasarrufida bo‘lgan, xususiy tadbirkor N.J.Nosirov tomonidan qayta qurilib foydalanishga topshirilgan bino, Qibray tumani sport maktabi tasarrufiga o‘tkazilsin.

3. Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Qibray tuman filiali (K.Abdullayev):

- Ushbu binoni kadastr hujjatlarini rasmiylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Baymatov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **M.A.Rashidov**